

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

IQTISODIYOT FAKULTETI

IQTISODIYOT VA MENEJMENT KAFEDRASI

**60410100-“Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida)” ta’lim yo‘nalishi
202-guruh talabalari uchun**

TIRKASHEV FARHOD MAHMUDOVICHning

“Makroiqtisodiyot” fanidan

“ Xalqaro savdo nazariyalari ” mavzusida ochiq amaliy darsining ishlanmasi

Samarqand – 2025

Tuzuvchi:

F.M.Tirkashev – “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi assistenti

Taqrizchilar:

M.Mardonov – TDIU Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi mudiri, PhD.

I.Salamov – SamDVMCHBU “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

**Kelishildi: O‘quv-uslubiy boshqarma
boshlig‘i, professor v.v.b.**

R.F.Ro‘ziqulov

“Tashqi savdo siyosati” mavzusidagi amaliy mashg’ulot o‘tish texnologiyasi

<i>Amaliy mashg’ulot vaqtisi:</i> 2 soat	<i>Talabalar soni:</i> 22
<i>Amaliy mashg’ulot rejasi/ amaliy mashg’ulotining tuzilishi</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Tashqi savdo siyosatining mohiyati va vositalari. 2. O‘zbekiston Respublikasida tashqi savdo siyosatining xususiyatlari.
<i>O‘quv amaliy mashg’uloti maqsadi:</i>	Talabalarga tashqi savdoning zaruriyati va uning asosiy ko’rinishlari, O‘zbekiston Respublikasida tashqi savdo siyosatining xususiyatlari,xalqaro eksport operatsiyalari,xalqaro import operatsiyalari davlatlar o‘rtasidagi savdo bitimlari, jahon savdosi tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shakllari, tashqi savdo hisobotlarining amaliy o‘rgatish hamda nazariy bilimlarni amaliyotda tatbiq etish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <ul style="list-style-type: none"> - <i>Tashqi savdo siyosati – budjet soliq siyosatining, tashqi savdo hajmlarini soliqlar, subsidiyalar, valuta nazorati va import yoki eksportni to‘g‘ridanto ‘g‘ri cheklashlar orqali tartibga solishning amaliy mohiyati tushuntirish;</i> - <i>tashqi savdo eksport import operatsiyalar davlatlar kesimida amaliy tushuntirib uning tuzilishi, mohiyati va mazmunini o‘rgatish.</i> 	<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> - tashqi savdo siyosatining iqtisodiyot bilan bog’liqligi mohiyatini tushunadi; - eksport va import operatsiyalari turkumlarini tasniflaydi va o‘rganadi;
<i>O‘qitish metodlari</i>	Muammoli amaliy mashg’ulotlar, aqliy hujum.
<i>O‘qitish vositalari</i>	Amaliy tarqatma materiallar matni, noutbuk, videoproektor va boshq.
<i>O‘qitish sharoiti</i>	Videoproektor bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo‘ljallangan xonalar
<i>Qaytar aloqaning yo‘l va vositalari</i>	Og‘zaki nazorat: Blits-so‘rov, test.

**“Tashqi savdo siyosati” mavzusidagi amaliyat mashg’ulot o‘qitishning
texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni (Pedagogik texnologiya – muammoli, klaster)	
	O‘qituvchi	Talabalar
1-bosqich. O‘quv mashg’ulotiga kirish (10 daq.)	<p>1.1.Amaliy mashg’ulot mavzuning nomi va rejasi e’lon qilinadi.</p> <p>1.2.Amaliy mashg’ulot mavzusini to‘liq o‘zlashtirish uchun asosiy va qo‘srimcha adabiyotlar beriladi.</p> <p>1.3. Amaliy mashg’ulot mavzusida ko‘p ishlataladigan atama va iboralar bilan tanishtiriladi</p> <p>1.4.Amaliy mashg’ulot mavzusi davomida o‘rganilayotgan muammolarga to‘xtalinadi</p> <p>1.5.Topshiriqlarga javob berish tartibi tushuntiriladi</p>	<p>Tinglaydilar Yozib oladilar Ma’ruza matnini ARMdan (O’UM, darslik, o‘quv qo‘llanma) oladilar Amaliy mashg’ulot bo‘yicha o‘z fikrlarini bildiradilar</p>
2-bosqich. Asosiy (60 daq.)	<p>2.1.Amaliy mashg’ulot ma’ruza matni tarqatiladi.</p> <p>2.2.Amaliy mashg’ulot bo‘yicha qo‘yilgan reja savollari keltirilgan taqdimotlar videoproyektor orqali ko‘rsatiladi, har bir savol bo‘yicha xulosa qilinadi hamda “bumerang” usulida savol bilan murojaat qilinadi</p> <p>2.3.Doskada asosiy faktlar, soliqlarni hisoblash bo‘yicha hamda soliqlarni hisoblash jarayonlari hayotiy aniq misollar ishlab chiqarish bilan bog‘liq holda yozib ko‘rsatiladi</p>	<p>Tinglaydilar Yozib oladilar Muhim joylarini belgilab oladilar Tushunmagan joylaridan savollar berishga tayyorlanadilar</p>
3-bosqich. Yakuniy (10 daq.)	<p>3.1.Amaliy mashg’ulotda o‘rganilgan soliqlar bo‘yicha ko‘tarilgan muammolar va auditoriyaga tashlangan savollar bo‘yicha xulosalar qilinadi</p> <p>3.2. Talabalar qiziqqan va tushunmagan masalalar bo‘yicha savollariga javob oladilar.</p>	<p>Savol beradilar. Vazifani yozib oladilar</p>

Amaliy mashg'ulot mavzusi: Tashqi savdo siyosati.

Reja

1. Tashqi savdo siyosatining mohiyati va vositalari.
2. O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo siyosatining xususiyatlari.

Tayanch iboralar: *tashqi savdo, eksport, import, balans, tashqi savdo defitsiti, savdo siyosati, maqsadli tariflar, kvotalar, savdo kelishuvlari, dastlabki savdo siyosati, erkin savdo zonasi, savdo balansining yaxshilanishi.*

1. Tashqi savdo siyosatining mohiyati va vositalari.

Savdo siyosati – budjet soliq siyosatining, tashqi savdo hajmlarini soliqlar, subsidiyalar, valuta nazorati va import yoki eksportni to‘g‘ridanto‘g‘ri cheklashlar orqali tartibga solishni o‘z ichiga olgan, nisbatan mustaqil yo‘nalishdir. Tashqi savdoni tartibga solishda eng ko‘p qo‘llaniladigan usul importga tarif belgilash bo‘lib, buning natijasida ichki baholarning o‘sishi kuzatiladi. Importga tariflarni joriy qilishdan iste’molchilar ko‘rgan zarar ishlab chiqaruvchilar va davlat ko‘rgan foydadan katta bo‘ladi. Importga tariflarni joriy qilishdan ko‘riladigan foyda va zararlar nisbati munozarali masaladir. Ammo import tariflari ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish, to‘lov balansini tartibga solish mahsadlarida keng qo‘llaniladi. Ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish maqsadida ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalar berish usuli ham qo‘llaniladi. Eksportga subsidiyalar valuta tushumini ko‘paytirish, ortiqcha mahsulotdan qutulish, tashqi bozorni egallash uchun qo‘llaniladi. Eksport subsidiyalarini qo‘llash dempingga olib kelmasligi kerak, chunki demping xalqaro savdo qoidalariga ko‘ra ta’qiqlangan. Tashqi iqtisodiy faoliyatni litsenziyalash va kvotalar o‘rnatish xalqaro savdoni tartibga solishning bevosita usullaridir. Xalqaro savdo siyosati vositalari va tadbirlari mamlakat iqtisodiyoti holatidan kelib chiqib yechilayotgan vazifalarga muvofiq tanlanadi.

2. O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo siyosatining xususiyatlari.

O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo siyosati mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Mustaqillik yillarda olib borilgan islohotlar natijasida tashqi savdo faoliyati erkinlashib, eksport va import hajmlari sezilarli darajada oshdi.

Davlat tomonidan eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilish, qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan tayyor mahsulotlarni eksport qilishga urg‘u berilmoqda.

Savdo hamkorligini kengaytirish orqali O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro savdo aylanmasi 2022-yilda 5,2 milliard AQSh dollariga yetdi. Bu ko‘rsatkich 2023-yilda, 7,3 milliard dollarni tashkil etdi.

Tranzit salohiyatini oshirish, logistika va transport yo‘laklarini rivojlantirish orqali tashqi savdo faoliyatini yanada samarali tashkil etish maqsad qilinmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi tashqi savdo siyosatining asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Bu jarayonda xalqaro shartnomalar doirasida hamkorlikni mustahkamlash, bojxona-tarif siyosatini takomillashtirish va eksport-import operatsiyalarini soddalashtirish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo siyosati iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlariga erishish, inflatsiya sur’ati va ishsizlik darajasilarining me’yor darajasida bo‘lishini ta’minalash, valuta zahiralarini ko‘paytirish, milliy valuta almashinuv kursining mo‘tadil devalvatsiyasi va to‘lov balansining barqarorligini ta’minalash maqsadlariga qaratilgan. Tayyor raqobatbardosh mahsulotlar eksportini faol oshirish va bu mahsulotlar etkazib beriladigan mamlakatlar geografiyasini yanada kengaytirish vazifasini amalga oshirish eksport hajmini barqaror o‘stirish, tashqi bozordagi o‘zgarishlar ta’sirida uning hajmi keskin kamayishi xavfini bartaraf etish imkonini beradi.Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo siyosati mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiyalash, eksport salohiyatini oshirish va xalqaro bozorga integratsiyalashish yo‘lida izchil chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

1-Topshiriq

1. O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo defitsiti 2023-yilda 3,7 milliard dollarni tashkil etdi. Tashqi savdo defitsitining oshishi mamlakat iqtisodiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi va uni kamaytirish uchun qanday choralar ko‘rish zarur?

2-Topshiriq

2. Mamlakat A va mamlakat B ikki turdag‘i mahsulot ishlab chiqaradi: poyabzal va mato. Mamlakat A poyabzal ishlab chiqarishda 100 soat va mato ishlab chiqarishda 50 soat sarflaydi. Mamlakat B poyabzal ishlab chiqarishda 80 soat va mato ishlab chiqarishda 40 soat sarflaydi. Har bir mamlakat qaysi mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi kerak?

Test topshiriqlari:

1. Tashqi savdo siyosati nima?

- A) Ichki bozorni himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui
- B) Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan ichki siyosat
- C) Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarini boshqarish siyosati
- E) Xalqaro tashkilotlarga a'zolik

2. Qaysi vosita tashqi savdo siyosatining tarif to'sig'iga kiradi?

- A) Eksport subsidiyalari
- B) Import kvotalari
- D) Valyuta kursini erkinlashtirish
- E) Mahalliy ishlab chiqaruvchilarga soliq imtiyozlari

3. Eksportni rag'batlantirish uchun qaysi chora-tadbir qo'llaniladi?

- A) Import bojlarini oshirish
- B) Mahalliy ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalar berish
- D) Valyuta kursini oshirish
- E) Ichki bozorni himoya qilish

4. "Import" tushunchasi nima?

- A) Tovarlarni xorijga olib chiqib ketish
- B) Tovarlarni xorijdan olib kirish
- D) Mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish
- E) Xalqaro savdo bitimlarini tuzish

5. Tashqi savdo siyosatining asosiy maqsadi nima?

- A) Ichki bozorni himoya qilish
- B) Milliy valyutani barqarorlashtirish
- D) Xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish
- E) Ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish

6. Qaysi vosita tashqi savdo siyosatining norasmiy to'siqlariga kiradi?

- A) Bojxona tariflari
- B) Kvotalar
- D) Sanitariya va fitosanitariya talablar
- E) Subsidiyalar

7. Tashqi savdo siyosatining iqtisodiy o'sishga ta'siri qanday?

- A) Soliq stavkalarini oshirish orqali
- B) Eksportni oshirish va investitsiyalarni jalb qilish orqali
- D) Ichki bozorni yopish orqali
- E) Valyuta kursini barqarorlashtirish orqali

8. "Reeksport" nima?

- A) Mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarni xorijga eksport qilish
- B) Xorijiy tovarlarni mamlakatga import qilish
- D) Mamlakatga import qilingan tovarlarni boshqa mamlakatlarga eksport qilish
- E) Mahalliy tovarlarni xorijga eksport qilish va keyin qayta import qilish

9. Tashqi savdo siyosatining ijtimoiy ta'siri qanday?

- A) Ish o'rinalarini kamaytirish
- B) Daromad taqsimotini yaxshilash

- D) Ijtimoiy tengsizlikni oshirish
- E) Ijtimoiy xizmatlarni qisqartirish

10. Qaysi vosita tashqi savdo siyosatining tarif to'siqlariga kiradi?

- A) Eksport subsidiyalari
- B) Import kvotalari
- D) Valyuta kursini erkinlashtirish
- E) Mahalliy ishlab chiqaruvchilarga soliq imtiyozlari

Takrorlash uchun savollar:

1. Savdo siyosatining mohiyati va maqsadlarini tushuntirib bering.
2. Importga tariflarning kiritilishidan iqtisodiy natijalariga izoh bering.
3. Importni yoqlovchi va unga qarshi bo'lgan fikrlarni taqqoslab bering. fikrlarga izoh bering.
4. Ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalarning importga tariflardan afzalligi va kamchiliklari nimada ?
5. Import kvotalarini kiritilishining iqtisodiy oqibatlari nimalarda ko'rindi?
6. Litsenziyalarni taqsimllash usullariga qiyosiy tavsif bering.
7. Eksportni subsidiyalash usullari mohiyatini tushuntirib bering. tushuntirib bering.
8. Eksportni ixtiyoriy cheklash qachon qo'llaniladi, va uning oqibatlari qanday?
9. Savdoni cheklash tadbirlarining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siriga izoh bering.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.
2. Yuldashev A., Soliq va soliqqa tortish...: "Iqtisod -Moliya", 2022.
3. Ishmuhammedov.A.E, va boshq. Makroiqtisodiyot. –T.: "Toshkent", 2020.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. –Toshkent: "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagи "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagи "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasining qonuni. Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida (yangi tahrirda). O‘RQ-404-son, 13.04.2016 y.

Axborot manbaalari

1. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi portalı
2. www.mineconomy.uz – O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
- 3.www.norma.uz – axborot-huquqiy portal
- 4.www.soliq.uz – Soliq to’lovchilar sayti.
- 5.www.stat.uz – Soliq to’lovchilar sayti.